

## MAKTABGACHA TA'LIM JARAYONIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISH METODIKASI

**Iskandarova N**

*SamDChTI*

**Sobirjonova X**

*SamDChTI*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola yurtimizdagi maktabgacha ta'lism jarayonida xorijiy tillarni o'qitishning zamонавиј metodikalariga berilgan katta imkoniyatlar hamda ularni o'rganish uchun zarur bo'lgan zamонавиј o'qitish usullarini o'z ichiga oladi.*

**Kalit so'zlar:** *Maktabgacha ta'limga xorijiy til, belgi va rasm orqali o'qitish, multfilm orqali o'qitish.*

**KIRISH.** Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish konikmasi proffessional talimning ajralmas qismlaridan biri bolib bormoqda. Bu maktabgacha ta'lism jarayonini ham chetda qoldirgani yo'q. Yoshlar ta'limi davomida xorijiy tillarni o'rgatishning ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Buni dinshunos olim, tarix fanlari nomzodi, katta o'qituvchi Natalya Kireeva "Yoki biz hayotga, yoki imtihonlarga tayyorgarlik ko'ramiz. Birinchisini tanlaymiz." deb takidlab o'tdi. Yaqinda u mahalliy ta'lism tizimi va printsiplari haqida gapirdi va nima uchun Finlyandiya ta'limi dunyodagi eng yaxshi bilimlardan biri deb qaralishi to'g'risida o'z fikrlari bilan o'rtoqlashdi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'limga etibor berish, davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan rivojlantirish demakdir

Hozirgi kunda til o`rganishga bo`lgan talab yanada oshmoqda. Zamon talabidan kelib chiqib til o`rganishda o`quvchining yoshi ahamiyatga ega emas. "Dunyoga kelgan yangi chaqaloq bolaning ruhini «top-toza paxtaga» o`xshatadi. Uning fikricha, bolaning «top-toza paxta» tarzidagi ruhiga nimalarni yozish mutlaqo katta odamlar ixtiyorlaridadir. Shuning uchun bolaning qanday odam bo`lib yetishishi, ya`ni unda qanday shaxsiy fazilatlarning tarkib topishi bola hayotdan oladigan tajribaga, o`zgalar bilan muloqot jarayonida oladigan hayotiy tushuncha va tasavvurlariga bog`liqdir", deb ta'kidlaydi Angaliyalik olim Djon Lokk. Chet tilini o`qitish, O`rta maxsus va Oliy ta`lim dargohlarida, balki maktabgacha ta`lim muassasalarida ham ta`limning majburiy qismiga aylandi. Hammamiz farzandimizni bilimli va zamонавиј inson qilib tarbiyalashni xohlaymiz. Yanikim o`zimiz amalga oshirolmagan ishlarni bolalarimizda ko`rishni istaymiz. Bolalarning xotirasi katta yoshdagи insonlarnikidan ancha yaxshi va mustahkamroq. Bolani yoshlik chog`idan boshlab chet tiliga bo`lgan qiziqishini oshirish, xato bo`sada shu tilda gapirishga harakat qildirish kerak.

Belgilar va rasmlar bilan ishlash usuli.

Kundalik so'z boyligini targ'ib qilishning usullaridan biri - Touchtime Internationalning direktori doktor Eleyn Fogel Shneyderning so'zlariga ko'ra: "Bolalarga umumiy brendlар va belgilarga og'zaki yorliq qo'yishdir." U rasmdan so'zga tarjima qilish tilni rivojlantirishga yordam berishini tushuntiradi. Yani bu bolalarni yangi tillarni tez va oson o'zlashtirishida juda katta yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim - yoshlarimiz ta'limi va tarbiyasining ilk bosqichi hisoblanadi. To'g'ri maktabgacha tarbiya dasturi bizning bolalarimizga noyob aqlga mos keladigan tarzda o'sishi va o'rganishiga yordam berishi kerak. Ammo bolalar kattalarnikidan farqli ravishda kelajakni, ertani oylab organishmaydi. Ingliz tilidagi dars «shu yerda va aynan hozir» manosida otkazilishi, bolishi kerak. Bolalar chet tilni hikoyalarni tushunish yoki oyinlarda galaba qozonish orqali osonroq organadilar. Agarda xohlasalar, ozlari ishtirokidagi oyinlar orqali organgan malumotlarini mustahkamlab oladilar. Bir tomondan, til bilan ifodalangan kontent bolalar hayoti, kundaligi bilan bogliq bolishi kerak, boshqa tomondan, bolalarni muloqotga chorlaydigan faoliyat yoki vazifalar qiziqarli va muhim bolishi kerak. O'quvchilar dars davomida ozlarini darsning bir qismi sifatida tushunishadi va dars jarayonida xuddi asar qahramonidek ozlarini tutishadi, harakat qilishadi. Boshlangich sinflarda, odatda, chet tillarni organish hayotiy situatsiya va oyinlarga asoslangan harakat usullaridan foydalangan tarzda organilganda juda samarali hamda muvaffaqiyatli boladi. Agar oyinli-syujetli situatsiyalar orqali chet tili orgatilsa, barcha bolalar bajonu-dil ishtirok etishadi, sababi ular shu tarzda osha situatsiyaning bir bolagi ekanligini his etishadi. O'quvchilar chet tili bilan, birinchi navbatda, oz sinf xonalarida birga "yashaydilar". Shuning uchun sinfda muloqot imkonи bolsa, osha chet tilida bolishi kerak . Bolalar nafaqat yoriqnomalarni tushunish bilan cheklanib qolmasdan, balki chet tili orqali oz ehtiyojlarini ifodalashlari ham mumkin. Shu nuqtai nazardan, ingliz tilida gaplashadigan shaxs(ona ili ingliz tili bolgan)lar bilan muloqot qilishi, sinfga taklif etish ham foydali hisoblanadi. Konstruktiv yondashuvga kora, bolalar imkon qadar koproq tilda ozlari sozlar mazmunini, qoidalarni bilib olishlari kerak. Bu shuningdek, ularning asosiy fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga yordam beradi. Barcha o'quvchilar singari, bolalar ham turli xil talim uslublariga ega. Bolalar uchun moljallangan talim barcha talim uslublarini hisobga oladi. Taktik va kinestetik organish turlari o'quvchidan alohida etibor talab qiladi. Boshlangich maktablarda o'quvchilarning iqtidorlari, malakalari, bilimlari va qiziqishlari kengroq boladi. Chet tilini organish, shuningdek, organuvchining yaxshi tushuna olish qobiliyatiga bogliqidir. Chet tilini orgatish mobaynida har bir bolani harakati uchun ragbatlantirib borish talab etiladi. Ularda akustik, kinestetik, ritmik va vizual farqlashni rivojlantirish kerak. Bolalar tez organishadi, lekin tezda unutishadi. Shuning uchun, nutqni bir necha bor takrorlab, shu mavzuga doir oyn yoki tarqatmalar orqali bolalarning esida qolishiga yordamlashish mumkin. Kurslar spiral bolib, muntazam takrorlashlar ajralmas qismdir. Xorijiy tillarni muvaffaqiyatli orgatish keng qamrovli usullarni talab qiladi

Bolalar 3 yoshdan boshlab til o`rganishsa, ular uchun bu ancha qulay vaqtadir: bu yoshdagi bolalar xotira va nutq jihatidan ajralib turadi. Bolaning yoshi qancha kichik bo`lsa, uning so`z boyligi kam hamda talaffuzga bo`lgan ehtiyoj katta bo`ladi.

Bolalarga til o`rgatishning har-xil metodikalari mavjud. Misol qilib aytganda, agarda oddiy kundalik sharoitimizda ko`chada, o`qishda yoki uyda chet tilida muloqot qilsak, bola uchun yaxshi najita beradi deb o`ylaymiz ammo bu ko`proq katta yoshdagi bolalar uchun ancha samarali. Chunki ko`p holatlarda bola bunday vaziyatda bu tilni o`rganishga bo`lgan qiziqishi so`nishi mumkin. Bilamizki kichik yoshdagi bolalar ko`proq o`yin mashg`ulotlariga qiziqishadi shuning uchun chet tilini o`qitishning eng yaxshi usullaridan biri bu o`yin. O`rgatilayotgan mavzu o`yin tarzida tushuntirilsa yoki takrorlantirilsa bu bola xotirasida qolishiga ancha yordam beradi.

XULOSA. Shuni xulosa qilib aytib o'tish kerakki, farzandlarimiz yetuk kadr bolib yetishlarida avvalambor, mактабгача талимнинг орни аhamiyatlidir. Biz ularни zamonaviy texnologiyalar va zamonaviy talim tizimi bilan taminlashimiz talab etiladi. Mактабгача талим jamiyatdagi har bir inson ildizlarining rivojlanishi, yani ularning kelajakda ona yurtiga munosib farzand, kuchli shaxs bolib voyaga yetishlarida ham katta ahamiyatga ega. Biz farzandlarimiz talimiga koproq etibor berishimiz, zamonaviy shart-sharoitlar yaratishimiz, yangi-yangi usullar orqali ularning organizhlariga komaklashishimiz zarur. Chet tillarini organizh bolalarga kelajakda yangi imkoniyatlar eshigini ochishi, ular malakali kadr bolib yetishishi, butun jamiyat uchun nafi tegadigan shaxs bolib kamol topishlari uchun ham ahamiyatlidir. Shuning uchun ham bolalarimizga yoshlidan talim berib borishimiz, oqishga qiziqtirishimiz, jamiyatimizdagi har bir bolani nazardan chetda qoldirmasligimiz, organizhga qiyngagan bolalar bilan ham alohida shugullanishimiz, turli xil qiziqarli oyinlar bilan etiborlarini tortishimiz, chet tillarini orgatish davomida muntazam ragbatlantirib borishimiz ularni kelgusidagi talimlari uchun dastlabki qadam boladi, desak adashmagan bolamiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Kanton Aargou. Fremdsprachen Lernen und Lehren. Englisch an der Primarschule. Leipzig-2017. S. 238—239.
2. Eine neue Aufgaben - und Leistungsbewertungskultur, U. Gibitz in: Neue Wege im Fremdsprachenunterricht am Beispiel des Rahmenplans für den Englischunterricht in der Orientierungsstufe, L. I. S. A. Schwerin 2001.